

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

**5111700-Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining
maxsus (majburiy) fanlar bo'yicha
attestatsiya sinovi (sirtqi)**

DASTURI

2024/2025 o'quv yili

Tuzuvchilar:

D.A.Muminova Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim kafedrası mudiri, p.f.d., professor v.b
 M.O.Hamidova NamDU Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim kafedrası professori, f.f.n.
 N.Z.Uluxujayev NamDU Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim kafedrası professori, p.f.n.
 M.Ya.Payzibayeva NamDU Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim kafedrası dotsenti
 G.G'.Mo'minova NamDU Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim kafedrası dotsenti

Taqrizchilar:

M.A.Asqarova NamDPI Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası mudiri, p.f.d., dotsent
 B.Q.Qurbonova FarDU Boshlang'ich ta'lim uslubiyoti kafedrası mudiri, p.f.d., professor

5111700-Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining maxsus (majburiy) fanlar bo'yicha attestatsiya sinovi dasturi Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim kafedrasining 2025-yil 25-yanvardagi № 6-sonli majlisida muhokama qilingan hamda tasdiqqa tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri**D.Muminova**

5111700-Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining maxsus (majburiy) fanlar bo'yicha attestatsiya sinovi dasturi Namangan davlat universiteti Kengashining 2025-yil 30-yanvardagi № 6-sonli majlisida muhokama qilinib, tasdiqlangan.

Kengash kotibi**A.To'xtaboyev****I. UMUMIY QOIDALAR**

1. 5111700-Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining maxsus (majburiy) fanlar bo'yicha attestatsiya sinovi dasturi (keyingi o'rinlarda – **Dastur**) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-dekabrda 836-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2020-yil 14-avgustdagi 418-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "5111700-Boshlang'ich bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari" (keyingi o'rinlarda – **Malaka talablar**) hamda Namangan davlat universiteti Kengashining 2022-yil 30-avgustdagi 1-sonli majlisida tasdiqlangan ta'lim yo'nalishi o'quv rejasining (keyingi o'rinlarda – **O'quv rejasi**) majburiy fanlar blokidagi umumkasbiy va ixtisoslik fanlari o'quv dasturlari asosida tuzildi.

2. Maxsus (majburiy) fanlar bo'yicha attestatsiya sinovi (keyingi o'rinlarda – **Attestatsiya sinovi**) O'zbekiston Respublikasining oliy ta'limga oid qonun hujjatlarida belgilangan tartibga ko'ra, bitiruvchilarning Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlaridan biri hisoblanib, unda ta'lim yo'nalishi xususiyati, iqtidori va xohishiga ko'ra bitiruv malakaviy ishi yozish istagini bildirmagan, o'quv rejasidagi fanlarni va ta'lim dasturlarini to'liq o'zlashtirgan, belgilangan kreditlarni to'plagan hamda to'lov-kontrakt shartlarini to'liq bajargan bitiruvchi kurs talabalariga ishtirok etish uchun ruxsat beriladi.

3. Attestatsiya sinovi universitet Kengashi tomonidan tasdiqlangan 5111700-Boshlang'ich yo'nalishi o'quv rejasining majburiy fanlar bloki tarkibidagi umumkasbiy va ixtisoslik fanlar o'quv dasturlari asosida o'tkaziladi.

4. Attestatsiya sinovi fanlar mazmuniga qo'yiladigan talablar bilan bir qatorda, talaba tayyorgarligining Malaka talablarida bitiruvchiga qo'yiladigan umumiy talablarga javob bera olish darajasini aniqlashga yo'naltiriladi.

II. ATTESTASIYA SINOVI SHAKLI VA MUDDATI

5. 2024/2025 o'quv yilida 60110500-Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining Attestatsiya sinovi –**axborot texnologiyalarini tatbiq etgan holda test** shaklda o'tkaziladi.

6. O'quv yili yakuniga qadar Attestatsiya sinovi shakli o'zgartirilishi mumkin emas.

7. Attestatsiya sinovi universitet o'quv jarayoni grafigiga asosan, o'quv ishlari prorektori tomonidan tasdiqlangan muddatlarda o'tkaziladi va kamida bir oy oldin talabalarga yetkaziladi.

8. Attestatsiya sinovi Namangan davlat universitetibazasida, talabalar sig'imiga qo'yiladigan texnik talablarga mos, Attestatsiya sinovi shaklidan kelib chiqib jihozlangan o'quv xonalari (hudud)da o'tkaziladi.

III. ATTESTATSIYA SINOVI SAVOLNOMASI

9. Attestatsiya sinovi savolnomasi ta'lim yo'nalishi Malaka talablarining
- bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga;
 - kasbiy faoliyatga;
 - umumkasbiy va ixtisoslik fanlariga qo'yilgan talablarni qamrab oladi.

10. Attestatsiya sinovi savolnomasi ta'lim yo'nalishi O'quv rejasining majburiy fanlar blokida keltirilgan quyidagi umumkasbiy va ixtisoslik fanlar dasturlari asosida shakllantirildi:

"ONA TILI" FANIDAN SAVOLLAR

1. Tilshunoslik fani nimalarni o'rganadi?
2. Tilshunoslik fanining qanday turlari bor va ular o'zaro qanday farqlanadi?
3. Nima uchun til ijtimoiy hodisa sanaladi?
4. "Jamiyatsiz til, tilsiz jamiyat bo'lishi mumkin emas", degan fikrni qanday izohlaysiz?
5. Tilning tarkibiy qismlari deganda nimalar nazarda tutiladi?
6. Tilda yuz beradigan o'zgarishlar birinchi navbatda uning qaysi bo'limida (sathida) yuz beradi va nima uchun?
7. Keyingi paytlarda o'zbek tili sathlarida (leksika, fonetika, grammatikasida) qanday o'zgarishlar yuz berdi?
8. Milliy til nima va uning tarkibiga nimalar kiradi?
9. Shevalar adabiy tildan qaysi jihatlariga ko'ra farqlanadi?
10. Bolalar adabiyotining vazifasi nimadan iborat?
11. Bolalar adabiyotida ma'naviyat deganda nimani tushunasiz?
12. Bolalar adabiyoti – so'z san'ati deganda nimani tushunasiz?
13. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning o'ziga xos xususiyatlari nimada?
14. Kichik maktab yoshi davri bolalar kitobxonligining avvalgisidan farqi nimada?
15. Jahon bolalar adabiyoti xususida fikr yuritish.
16. Fonetika nimani o'rganadi?
17. Tovush va fonemaning farqini ayting.
18. Maqol nima?
19. Topishmoq qanday janr?
20. Morfologiya va sintaksis bo'limlari-da qanday masalalar o'rganiladi?
21. "So'z turkumlari" deganda nimani tushunasiz?
22. Alisher Navoiyning o'zbek bolalar adabiyotiga qo'shgan eng buyuk xizmatlari nimada deb bilasiz?
23. Alisher Navoiyning tug'ilishi, oilasi va Iroqqa ketishigacha bo'lgan davr haqida so'zlab bering.
24. Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" asari bo'lajak shoirga qanday ta'sir ko'rsatdi?
25. Alisher Navoiy "Lison ut-tayr" asarida qanday masalalarni ilgari surgan?
26. Alisher Navoiyning odob-axloq haqidagi asarlari xususida to'xtalib, fikringizni bildirish.
27. Gulxaniyning hayoti va ijodiy faoliyati haqida qisqacha so'zlab bering.

28. Gulxaniy she'rlari to'g'risida so'zlab bering.

29. Masal deb qanday asarga aytiladi?

30. Ot turkumining ta'rifi va so'zlarini ayting, misollar keltiring.

31. "Maymun bilan Najor", "Tuya bilan Bo'taloq masallarining Yapaloqqush hikoyasiga ulanib kelishini tushuntirib bering.

2. Qo'shma gap deb qanday gaplarga aytiladi?

33. "Toshbaqa bilan Chayon" masalida qanday g'oya ilgari surilgan?

34. Ergashgan qo'shma gap qismlari qanday vositalar yordamida bog'lanadi?

35. "Zarbulmasal" asarini yaratishda Gulxaniy xalq og'zaki ijodidan qanday foydalangan?

36. O'zbek bolalar adabiyotining bosib o'tgan tarixiy yo'li haqida nimalarni bilasiz?

37. Zidlov bog'lovchili bog'langan qo'shma gaplarda qanday mazmun ifoda etiladi?

38. Bolalar adabiyotida o'qish, odob, ona-Vatanga muhabbat, do'stlik mavzularida yaratilgan asarlardan namunalar keltiring.

39. Zidlov bog'lovchili bog'langan qo'shma gaplarda qanday mazmun ifoda etiladi?

40. Abdulla Avloniy qaysi janrning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi?

41. Abdulla Avloniyning qanday pyesalari bor? Biror pyesaning ma'nosini aytib bering.

42. Bog'langan qo'shma gap qismlari qanday vositalar yordamida bog'lanadi?

43. A. Avloniy qanday darsliklar yaratgan?

44. Bog'langan qo'shma gap qismlari qanday vositalar yordamida bog'lanadi?

45. Ergashgan qo'shma gap qismlarini bog'lovchi vositalardan qaysilari bosh gap tarkibida keladi?

46. "Inqilob kuychisi" nomini olgan shoir kim?

47. Biriktiruv bog'lovchili bog'langan qo'shma gaplarda qanday mazmun ifoda etiladi?

48. Ko'makchili qurilmalar yordamida ergashgan qo'shma gapning qanday turi hosil qilinadi?

49. Ergash gap deb nimaga aytiladi?

50. H. H. Niyoziy qachon, qayerda va qanday oilada tug'ilgan?

51. Uyushiq bo'lak deb nimaga aytiladi?

52. Hamza 1-sinf bolalari uchun qanday darslik yozgan?

53. Uyushiq bo'laklar qanday holda shakllanadi?

55. Hamza 2-sinf bolalari uchun qanday darslik yozgan va unga qanday hikoyalar kiritilgan?

56. 1918-yilda 8 oylik muallimlar tayyorgarlik kursiga kirib tahsil olgan shoir kim?

57. "Tirilgan murda", "Yodgor" asari, "Bir g'uncha ochilguncha", "Bari seniki" she'riy to'plamlari kimning qalamiga mansub?

58. "Ahmadjon yomon bola emas-ku, ammo", "Nortojining kurak tishi" she'rlarida qanday illatlar qoralangan?

59. Mulla Mamajonning 1925-1933-yillarda boshidan kechirganlari G'afur G'ulomning qaysi asarida yozilgan?

60. Ajratilgan bo'laklar deb qanday bo'laklarga aytiladi?

61. G'afur G'ulomning "Tirilgan murda" asari necha qismdan iborat va ularda qanday g'oyalar ilgari suriladi?

62. Ajratilgan bo'laklar garda qanday vazifa bajaradi?

63. "Shum bola" asarini qanday asar deb atash mumkin? U necha qismdan iborat?

64. G'afur G'ulom qayerda tug'ilgan va uning avtobiografik asari qanday nomlanadi?

65. Quddus Muhammadiy qaysi yozuvchilarni ustoz deb bilgan?

66. O'zga gap nima va qanday shaklarda namoyon bo'ladi?

67. Quddus Muhammadiy qanday yumoristik va satirik she'rlar yozgan? Ulardan birini yoddan ayting.
68. Gaplar tuzilishiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
69. Sodda gap deb qanday gaplarga aytamiz?
70. Shukur Sa'dulla necha yil umr ko'rgan va necha yilini ijodiga bag'ishlagan?
71. Qo'shma gap deb qanday gaplarga aytamiz?
72. Gaplar tuzilishiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
73. Sodda gap deb qanday gaplarga aytamiz?
74. Qo'shma gap deb qanday gaplarga aytamiz?
75. «Yaxshi ism» da Hakim Nazir bolalarda qanday tarbiyani rivojlantirishni ko'zda tutadi?

76. Hakim Nazirning «Yonar daryo» qissasining bosh maqsadi nima?
77. Modal so'zlar deganda nimani tushunasiz?
78. Taqlid so'zlarning qanday turlari mavjud?
79. Po'lat Mo'min dastlab qayerda ishlaydi?
80. Sintaksisda nimalar o'rganiladi?
81. So'z birikmasining so'zdan farqi nimada?
82. So'roq gaplar qanday vositalar yordamida shakllanadi?
83. O'zbek bolalar adabiyoti qaysi davrda fan sifatida shakllangan?
84. Bolalar adabiyoti kitobxonlarnig yosh xususiyatlariga ko'ra necha turga bo'linadi?
85. Bolalar adabiyoti folklor bilan bog'lanadimi?
86. To'liqsiz gaplarda qanday bo'laklar tushirilishi mumkin?
87. Bolalar adabiyotining kattalar adabiyotidan farqi nimada?
88. Avloniy qaysi janrlarda ijod qilgan?
89. G'.G''ulomning qaysi asarida kampir o'g'ri bilan suhbatlashadi?
90. Z.Diyorning qaysi asari vatan mavzusida yozilgan?
91. Bir bosh bo'lakli gaplar deb nimaga aytiladi?
92. Qaysi shoir ijodida tabiat mavzusi yetakchi o'rin tutadi?
93. X.To'xtaboevning «Besh bolali yigitcha» romani voqealari qayerlarda kechadi?
94. «Temirlar o'yini» she'rida o'tin yorish, temir to'plash orqali qanday g'oya ilgari suriladi?
95. O'z ijodini felyetonchilikdan boshlagan adib kim?
96. Gap bo'laklari deb nimaga aytiladi?
97. Frazologiya deb nimaga ayiladi?
99. Chet el bolalar adabiyoti namoyandalaridan kimlarni bilasiz?
100. Nutq uslublari deb nimaga aytiladi?

ONA TILI O'QITISH METODIKASI FANIDAN SAVOLLAR

1. O'quvchilarni savod o'rgatishga tayyorlov («Alifbe» gacha bo'lgan davr) davrida nutq o'stirish
2. Savod o'rgatish tayyorlov davri yozuv darslarini tashkil etish
3. Savod o'rgatish tayyorlov davrida o'yinlardan foydalanish
4. Alifbe davrida yozuv ko'nikmalari shakllantirish
5. Savod o'rgatish davridagi dars tiplari, ularning maqsadi, mazmuni va ko'rilishi.
6. Savod o'rgatish darslarida ko'rgazmali vositalardan foydalanish.
7. «Alifbe» darslarida nutq tovushlarini tahlil va tarkib qilish priyomlarining qo'llanishi.
8. Savod o'rgatish darslarida o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish.
9. Savod o'rgatish davri darslarini pedagogik texnologiyalardan foydalanish

10. Savod o'rgatish davrida sinfdan tashhari o'qish mashg'ulotlari.
11. Savod o'rgatish davrida sinfdan tashqari ishlar («Alifbe» bayrami va shuning kabilar) ni uyushtirish.
12. Savod o'rgatish davrida gap ustida ishlash.
13. Savod o'rgatish sinfdan tashhari o'qishni tashkil etish.
14. Savod o'rgatish davrida bo'g'in ustida ishlash.
13. Savod o'rgatish davrida gap ustida ishlash.
15. Savod o'rgatish davrida sinfdan tashhari o'qishni tashkil t etish.
16. Savod o'rgatish davri yozuv darslarida o'tkaziladigan diktantlar.
17. Savod o'rgatish davri yozuv darslarida imlo ustida ishlash.
18. Savod o'rgatish davri yozuv darslarida nutq o'stirish.
19. Savod o'rgatish davri yozuv darslarida mustaqil ishlarni tashkil etish.
20. Savod o'rgatish darslarida axborot texnologiyalardan foydalanish.
21. Savod o'rgatish darslarida lug'at ustida ishlash.
22. Savod o'rgatish darslarida dam olish daqiqalarini tashkil etish.
23. Savod o'rgatish darslarida o'quvchilarni ongli o'qishga o'rgatish.
24. Bolalarning savod o'rgatish jarayoniga tayyorgarligini o'rganish.
25. Savod o'rgatish darslarida mantiqiy mashqlarni tashkil etish.
26. Savod o'rgatish mashqlarini tashkil etish.
27. Savod o'rgatish davrida o'qish va yozuv faoliyatining bog'liqligi
28. Savod o'rgatish tajribalarini tadbiq etish.
29. Sinfdan tashhari tayyorlov bosqich darslarini tashkil etish .
30. Sinfdan tashhari asosiy bosqich darslarini tashkil etish
31. Sinfdan tashhari asosiy bosqich darslarini tashkil etish.
32. Sinfdan tashhari boshlang'ich bosqich darslarini tashkil etish
33. O'qish darslarida qayta hikoyalash turlaridan foydalanish.
34. O'qish darslarida hikoya o'tish uslubi
35. O'qish darslarida ertak o'tish uslubi
36. O'qish darslarida masal o'tish uslubi
37. O'qish darslarida she'r o'tish uslubi
38. O'qish darslarida lirik she'r o'tish uslubi
39. O'qish darslarida epik she'r o'tish uslubi
40. O'qish darslarida ilmiy – ommabop asarlarni o'tish uslubi
41. 1 – 2 sinf o'quvchilarning o'qish malakalarini takomillashtirish
42. Boshlang'ich sinf o'quvchilarni ifodali o'qishga o'rgatish.
43. O'qish darslarida mustaqil ishlarni tashkil etish.
44. O'qish darslarida matn ustida ishlash.
45. O'qish darslarida savol – topshiriqlar ustida ishlash.
46. Sinfdan tashqari o'qish darslarida qardosh xalq yozuvchilari ijodini o'rganish.
47. Sinfdan tashhari o'qish darslarida xorijiy xalq bolalar yozuvchilari ijodini o'rganish.
48. Umumlashtiruvchi o'qish darslarini tashkil etish.
49. O'qish darslarida ko'rgazmali vositalardan foydalanish.
50. O'qish darslarida o'quvchilar nutqini o'stirish.
51. O'qish darslarida badiiy til vositalari ustida ishlash.
52. O'qish darslarida mustaqil ishlarni tashkil etish.
53. O'qish darslarida maqollarni o'rganish uslubi
54. O'qish darslarida topishmoqlarni o'rganish uslubi
55. O'qish darslarida she'riy asarlarni o'rganish uslubi

56. O'qish darslarida ongli o'qishni ta'minlash usullari.
57. Boshlang'ich sinflarda «So'z tarkibi» mavzusini o'rgatish metodikasi.
58. Boshlang'ich sinflarda «Ot» mavzusini o'rgatish metodikasi.
59. Boshlang'ich sinflarda «Sifat» mavzusini o'rgatish metodikasi.
60. Boshlang'ich sinflarda «Gap» mavzusini o'rgatish metodikasi.
61. Boshlang'ich sinflarda tinish belgilarini o'rgatish metodikasi.
62. Boshlang'ich sinflarda grammatik razborni o'tkazish metodikasi.
63. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini yozilish qiyin so'zlarni yozishga o'rgatish.
64. Boshlang'ich sinf grammatika, imlo va nutq o'stirish darslarida ko'rgazmali qurollardan foydalanish.
65. Boshlang'ich sinflarda bayon yozishga o'rgatish.
66. Boshlang'ich sinflarda insho yozishga o'rgatish.
67. Boshlang'ich sinflarda rasmga qarab insho yozish yo'llari.
68. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma ishlarida yo'l qo'yadigan xatolari ustida ishlash.
69. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida texnika vositalaridan foydalanish.
70. Grammatika va imlo o'rgatish jarayonida muammoli ta'lim elementlaridan foydalanish.
71. 2 – sinfda jarangli va jarangsiz undoshlarni o'rganish uslubiyoti.
72. Ona tili darslarida tinish belgilarga doir bilimlarni shakllantirish.
73. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida «Gapning bosh bo'laklari» mavzusini o'rganish.
74. Ona tili darslarida «Gap va uning turlari» mavzusini o'rganish.
75. Ona tili darslarida o'quvchilar nutqini o'stirish.
76. 1 – 2 sinfda «Ot» so'z turkumini o'rganish.
77. Boshlang'ich sinflarda «Sifat» so'z turkumini o'rganish.
78. Ona tili darslarida noan'anaviy usullardan foydalanish.
79. 1 – 2 sinfda «Fe'l» so'z turkumini o'rganish.
80. Ona tili darslarida didaktik materiallardan foydalanish.
81. Ona tilidan dars tiplari va ularga qo'yiladigan talablar.
82. Sifat so'z turkumini o'rganish jarayonida o'quvchilar nutqini o'stirish.
83. Ot so'z turkumini o'rganish jarayonida o'quvchilar nutqini o'stirish.
84. Boshlang'ich sinflarda ta'limiy diktant va uni tashkil etish.
85. Boshlang'ich sinflarda tekshiruv diktanti va uni tashkil etish.
86. 4 – sinfda otlarning kelishik qo'shimchalari bilan turlanishi mavzusini o'rganish.
87. 4 – sinfda otlarning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishi mavzusini o'rganish.
88. 3 – sinfda «So'z tarkibi» mavzusini o'rganish.
89. 4 – sinfda «Fe'llarning shaxs – son qo'shimchalari bilan tuslanishi» mavzusini o'rganish.
90. 4 – sinfda «Fe'l zamonlari» mavzusini o'rganish.
91. Boshlang'ich sinfda kishilik olmoshlarini o'rganish uslubiyoti.
92. Boshlang'ich sinfda son turkumini o'rganish uslubiyoti.
93. 4 – sinfda uyushiq bo'laklarni o'rganish uslubiyoti.
94. 4 – sinfda undalmali gaplarni o'rganish uslubiyoti.
95. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini bayon yozishga o'rgatish. (2 – 4 sinflar)
96. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini insho yozishga o'rgatish (3-4 sinflar).
97. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tilidan bilimni tekshirish usullari.
98. Boshlang'ich sinf ona tili darslariga qo'yiladigan talablar.
99. Boshlang'ich sinfda «2 – darajali bo'laklar» mavzusini o'rganish.

MATEMATIKA O'QITISH METODIKASI SAVOLLARI

1. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi fan sifatida shakllanishi.
2. Metodik tizimning asosiy komponentlari.
3. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishning tarbiyaviy, ta'limiy, rivojlantiruvchi maqsadi va vazifalari.
4. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasining mazmuni va tuzilishi.
5. Boshlang'ich sinflarda matematika fanining fanlararo aloqadorligi.
6. Metod tushunchasi.
7. Metod turlari va tasnifi.
8. O'quv bilish faoliyatini tashkil qilish metodi va ular orasidagi bog'liqlik.
9. O'qitishni tashkil qilishda didaktik o'yin metodidan foydalanish.
10. O'quvchilar bilimni o'zlashtirish samaradorligini aniqlash metodlari.
11. O'quvchilarning faollik darajasiga ko'ra qo'llaniladigan metodlar.
12. Boshlang'ich sinf matematika darslarida interaktiv metodlardan foydalanish.
13. Boshlang'ich sinfda matematika darsining tuzilishi va dars tizimi.
14. Muammoli dars va uni tashkil qilish usullari.
15. Ta'limning darsdan tashqari yordamchi shakllari.
16. Darsdan tashqari mashg'ulot turlari.
17. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga mos tarixiy ma'lumotlar mazmuni.
18. Matematikadan boshlang'ich sinflar uchun darsliklar, ularning mazmuni va tuzilishi.
19. Turli metodik qo'llanmalar, ko'rgazmalar va ulardan foydalanish.
20. O'qitish vositalaridan ijodiy foydalanish va yasaladigan ko'rgazmali ko'rsatmalar.
21. Oz komplektli maktablarda matematika o'qitishni tashkil qilishning o'ziga xos xususiyati.
22. Ixtisoslashtirilgan boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish.
23. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash.
24. O'quvchilarni maktabgacha bo'lgan davrda matematik tayyorgarligi darajasini aniqlash va ularni tartibga solish.
25. Nomerlashga o'rgatishga tayyorgarlik.
26. Son va sanoq tushunchasini shakllantirish bosqichlari.
27. O'nli sanoq sistemasi xususiyatlari va uning nomerlashga asos qilib olinishi.
28. Konsentrlar bo'yicha nomerlashga o'rgatish metodi.
29. Darsni tashkil qilish, ko'rgazmalilik hamda didaktik materiallardan foydalanish.
30. Raqamlashga o'rgatishda matematik diktantning o'rni.
31. Boshlang'ich sinflarda 10, 100, 1000 va ko'p xonali sonlar ustida nomanfiy butun sonlarni nomerlashga o'rgatish metodikasi.
32. Boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan asosiy miqdorlar: uzunlik, massa, narx, baho, vaqt, masofa, tezlik.
33. Miqdorlarni o'lchash, o'lchov birliklarining turlari orasidagi bog'liqliklar.
34. Miqdorlar ustida amallar bajarishga o'rgatish metodikasi.
35. Uzunlik va yuza o'lchov birliklari.
36. Massa va sig'im o'lchov birliklari.
37. Vaqt o'lchov birliklari.
38. O'nlik, yuzlik, minglik va ko'p xonali sonlar konsentrida arifmetik amallarni o'rgatish metodikasi.
39. Nomanfiy sonlar ustida arifmetik amallarni o'rgatish metodikasi.

40. Arifmetik amallarni o'rgatishning umumiy masalalari.
41. Qo'shish va ayirish, ko'paytirish va bo'lish amali ma'nosini ochib berish hamda uni bosqichlab kontsentrlarda bajarilishini o'rgatish.
42. O'quvchilarning og'zaki va yozma hisoblash malakalarini shakllantirish.
43. Qo'shish va ko'paytirish jadvallari va ularga mos ayirish va bo'lish hollarini o'rgatish.
44. Og'zaki hisoblash texnologiyalari.
45. Yozma hisoblash algoritmini o'rgatish.
46. Hisoblash malakalarini tekshirish uchun nazorat ishlari.
47. Hisoblashda o'quvchilar yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan xatolarni aniqlash va uni bartaraf qilish yo'llari.
48. Og'zaki va yozma hisoblashga doir didaktik (o'yinlar) topshiriqlar to'plamini tuzish.
49. Boshlang'ich sinflarda algebra elementlarini o'rgatish metodikasining umumiy masalalari.
50. Son va ifoda tushunchasi.
51. Sonli va harfiy ifoda.
52. O'zgaruvchi qatnashgan ifoda.
53. Tenglik va tengsizlik.
54. Sonli tenglik, tengsizlik va uni yechishga o'rgatish metodikasi.
55. Tenglama va uni yechishga o'rgatish usullari.
56. Tenglik va tengsizliklarni o'rgatish metodikasi bilan tanishtirish.
57. Sodda tenglamalarni o'rgatish metodikasi.
58. Tenglama tuzilishi, turlari.
59. Tenglamalar yechish metodikasi.
60. Nuqta, kesma, ko'pburchak tushunchasi haqida tasavvurni shakllantirish va ularni chizish, ayrim xossalari bilan tanishtirish metodikasi.
61. Sodda geometrik yasash ishlari bilan tanishtirish, fazoviy tasavvurlarni rivojlantirish.
62. Burchaklar va ularning turlari.
63. Figuralarni farqlay olish, qismlarga bo'lish.
64. Ko'pburchaklar perimetri hamda yuzasini hisoblash.
65. Perimetr va yuza o'lchov birliklari va ular orasidagi bog'anishga doir masalalar yechish.
66. Boshlang'ich sinflarda Perimetr va yuza (Sig'im, hajm) tushunchalarini o'rgatish metodikasi.
67. Koordinata burchagi.
68. Nuqta koordinatasi.
69. Ko'pyoq.
70. To'g'ri burchakli parallelepiped.
71. Fazoviy shakllar.
72. Kub va uning elementlari.
73. Grafik ko'rinishdagi ob'ektlar ustida ishlash.
74. Sodda grafiklar, diagrammalar, jadvallar.
75. Burchak turlari.
76. Yoyiq burchak.
77. Burchak gradusi.
78. 30, 45, 60, 90 gradusli burchaklarni transporter yordamida o'lchash.
79. Soat millari.
80. Shakllarni burish.
81. Burchak simmetriyasi.
82. Simmetrik shakllar.

83. Simmetriya o'qlarini topish.
84. Ko'pyoq modellari va ularning elementlari.
85. Kasr tushunchasi bilan tanishtirish metodikasi.
86. Ulush. Butunning ulushini topish.
87. Ulushga ko'ra butunni topish.
88. Maxraji 10 dan oshmagan kasrlarni taqqoslash.
89. Maxrajilari bir xil bo'lgan kasrlarni qo'shish va ayirishning ma'nosi.
90. Sonning kasr qismi va kasrga ko'ra sonni topishga doir masalalar yechish.
91. Kasr. Maxraji 2, 4, 8 bo'lgan kasrlar tushunchasi.
92. Maxraji 2, 4, 8 bo'lgan teng kasrlar.
93. Maxraji 3, 4, 5, 6, 8, 12 bo'lgan kasrlarni yarim ulush bilan taqqoslash.
94. O'nli kasrni to'g'ri kasr ko'rinishda ifodalash.
95. O'nli kasrlar ustida arifmetik amallar
96. Masala va uning tarkibi.
97. Sodda va murakkab masalalar.
98. Masala tuzish va uni yechish.
99. Masala yechishga o'rgatish bosqichlari va uning mantiqiy asosi.
100. Masalalar turlari va ular ustida ijodiy ishlash.
101. Konsentrlar (10, 100, 1000 va ko'p xonali sonlar) bo'yicha masalalar yechish ustida ishlash.
102. Masala yechishga o'rgatishning umumiy usullari ustida ishlash.
103. To'g'ri to'rtburchak va kvadratning perimetrini, yuziga doir masalalar yechishga o'rgatish.
104. Yuzlarni formula yordamida hisoblashga doir masalalar.
105. Bir o'zgaruvchili tenglamalar bilan yechiladigan murakkab masalalarni yechishga o'rgatish.
106. Masalalarni tenglama va jadval tuzib yechish.
107. Sonli tenglik va tengsizliklarga oid masalalar yechish.
108. Murakkab masalalar yechish usullari.
109. Masalani bir o'zgaruvchili tenglama yordamida yechish.

TEXNOLOGIYA O'QITISH METODIKASI FANIDAN UMUMIY SAVOLNOMALAR

1. Texnologiya ta'limining asosiy maqsadi nima?
2. Texnologiya darslarida texnika xavfsizlik qoidalarini o'rgatish tartibi qanday?
3. Texnologiya ta'limining maqsadi va vazifalarini ayting.
4. Axloqiy tarbiya haqida gapiring.
5. Texnologiya fanining nazariy va amaliy asoslari qanday?
6. Applikatsiya nima va uning turlarini ayting.
7. Texnologiya ta'limining qanday maqsadlari bor?
8. Boshlang'ich sinflarda texnologiya ta'limining mazmuni nima?
9. Qog'oz tirlari (standartlari) haqida aytib bering.
10. Estetik tarbiya haqida gapiring.
11. Texnologiya darslari samaradorligini oshirish yo'llari haqida so'zlang?
12. Texnologiya fani darslarida integratsiyon yondashuv qaysilar?
13. Texnologiya darslarida ma'naviy tarbiya haqida so'zlang.
14. Darslarda sanitariya-gigiena talablari haqida aytib bering.
15. Nazariy va amaliy bilimlarning uzviyligi haqida gapiring.

16. Qo'l mehnati usullari haqida so'zlang.
17. Texnologiya darslarida ish unumini oshirish yo'llari haqida gapiring.
18. Maket nima?. Model nima?
19. Texnologiyai darslarida qanday ish turlari bo'yicha ish olib boriladi?.
20. Mehnat tarabiyasida mehnat an'analarning o'rni qanday?
21. Texnologiya faniga xalq og'zaki ijodini tadbqiq qilish usullari qanday?
22. Turli materiallar xaqida gapiring?
23. Tabiiy materiallar bilan ishlash darslarini tashkil etish metodikasi.
24. Texnologiyai talimida malaka va ko'nikmalarni shakllantirish bosqichlari haqida ayting.
25. Interaktiv metod haqida gapiring.
26. Texnologiya darslarida xorijiy ta'lim tizimining ahamiyati qanday?
27. Tabiiy materiallar bilan ishlash haqida gapiring.
28. Texnologiya darslarida axborot texnologiyalardan foydalanish talablari?
29. Texnologiya darslarida qanday qo'l mehnatidan foydalaniladi?
30. Texnologiya darslarida konstruksiyalashtirish va modellashirish ishlari haqida ma'lumot bering.
31. Rangli qog'ozlardan bayram tabriknomasini tayyorlash texnologiyasi.
32. Texnologiya darslarida innovatsion texnologiyalaridan foydalanish usullari?
33. Texnologiya darslarini tashkil etish shakllari va metodlari.
34. Texnologiya darslarida interfaol usullardan foydalanish?
35. Texnologiya ta'limida applikatsiya ishlari bajarish va uning turlari.
36. Texnologiya fanida qanday tarbiya turlari beriladi, tarbiya turlariga izoh bering.
37. Turli tabiiy materiallar va ular bilan ishlash usullari haqida nimalarni bilsiz?
38. Texnologiya darslarida jismoniy tarbiya haqida yozing.
39. Darsning maqsad va vazifasi, jihozlari, dars jarayonini amalga oshirish texnologiyalari nimalar?
40. Texnologiya darslarida bilim, ko'nikma va malaka talablari.
41. Qog'oz va karton turlari haqida yozing.
42. Texnologiya fanida qanday ekologik tarbiya berib boriladi.
43. Texnologiya darslari samaradorligini oshirish usul va yo'llari qanday?
44. Turli tabiiy va mahalliy xom ashyolari haqida yozing.
45. Xona o'simliklarini parvarish qilish, urug'larni ko'kartirish texnologiyasi.
46. Maktabda texnologiya fanini rejalashtirish turlari (sinflar kesimida).
47. Texnologiya darslarining ta'limiy-tarbiyaviy vazifalari va unga qo'yilgan talablar qanday?
48. Darslarda sanitariya-gigiena talablari haqida nimalarni bilasiz?
49. Texnologiya darslarida o'quv jarayonini tashkil etish usullari qanday?
50. Qo'l mehnati usullari va uning talablari nimalar?
51. 1-sinf texnologiya darsligining mazmuni aytib bering?
52. Boshlang'ich sinf texnologiya ta'limi-tarbiyasida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llash uchun nimalarga e'tibor beriladi?
53. Texnologiya darslarida ish unumini oshirish yo'llari qanday?
54. Mehnat ta'limi va tarbiyasining uzviyligi qanday?
55. Qog'oz va karton bilan ishlash darslarini tashkil etish metodikasi?
56. Ranglar asosan necha xil va o'quvchilarni ranglar bilan ishlashga o'rgatish.
57. Qog'ozdan mozaika tayyorlash texnologiyasini yozing?
58. Texnologiya darslarida milliy urf-odatlar ruhida tarbiyalash.
59. Gazlamalar bilan ishlashni tashkil etish metodikasi?

60. Texnologiya darslarida ish joyini to'g'ri tashkil etish jarayoni qanday?
61. Texnologiya darslarida o'quvchilarni tashlandiq materiallar bilan ishlashga o'rgatish.
62. Amaliy mashg'ulotlarda mustaqil ishlarni tashkil etishning ahamiyati qanday?
63. Texnologiya darslarida turli, tabiiy, sun'iy va tashlandiq materiallar bilan ishlash usullarini aniqlang?
64. Texnologiya fanida turli metodlardan foydalanish talablari qanday?
65. Texnologiya o'qituvchisining shaxshiy sifatleri haqida gapiring.
66. Texnologiya darslarida ish unumini oshirish yo'llari va texnologiyasi?
67. Texnologiya darslarida texnik vositalaridan foydalanish yo'llari qanday?
68. 2-sinf texnologiya darsining mazmuni nimalardan iborat?
70. Texnologiya fani o'qituvchisi kreativligi deganda nimani tushunasiz?
71. Mozaika nima? Qog'ozdan va tuxumdan mozaika tayyorlash texnologiyasi.
72. Ish joyini to'g'ri tashkil qilish qoidalarini sanab bering?
73. Texnologiya fanidada tarbiya, tushintirish va hikoya qilish metodi haqida tushuncha bering?
74. 3 -sinf texnologiya fanining mazmuni nimalardan iborat?
75. Texnologiya fanining shakl va metodlari nimalar?
76. Texnologiya darslarida qishloq xo'jaligii mehnati darslarini tashkil etish?
77. O'quvchilarni xalq amaliy san'ati turlari bilan tanishtirish?
78. Texnologiyai darslarida mutaffakkirlar merosidan foydalanish usullari?
79. Texnologiya darslarida grafik sovdaxonlik ishlari.
80. 4-sinf texnologiya darsligi muallifi kim va darslik tahlilini bajaring?
81. Texnologiya jarayonida dars samaradorligini oshirish yo'llari qanday?
82. O'quvchilarni qanday mehnatga ahloqiy tayyorlanadilar?
83. Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida qo'l mehnatidan foydalanish usullari.
84. Texnologiya ta'limi jarayonida axborot texnologiyalar foydalanish yo'llari.
85. 1-sinfda o'quvchilarda qog'oz va kartonga ishlov berish jarayonida eng avvalo qanday ish bajariladi?
86. Texnologiya darslarida iqtisodiy va ekologik tarbiya berish usullari nimalar?
87. Boshlang'ich sinflarda qanday haykaltaroshlik turi bo'yicha ish olib boriladi?
88. Texnologiya ta'limida amaliy ishlarni tashkil etish metodikasi qanday?
89. Gazlamalar bilan ishlash jarayoni qanday kechadi?
90. Texnologiya ta'limida ranglar bilan ishlashda nimalarga e'tibor berish kerak?
91. Boshlang'ich sinf o'quvchilarni chevarlik ishlariga o'rgatishda qaysi ish turi muhim ahamiyatga ega?
92. Turli materiallar bilan ishlash jarayonida estetik tarbiya berish yo'llari qanday?
93. Texnologiya fani orqali o'quvchilarni qanday kasblar egallashga o'rgatiladi?
94. Boshlang'ich sinflarda daraxt shoxlariga ishlov berish ishlari qanday amalga oshiriladi?
95. Texnologiya fanida yangi pedagogik texnologiyalarni qanday tadqiq qilinadi?
96. Applikatsiya va uning turlari haqida ayting?
97. Texnologiya fanining nazariy va amaliy asoslarini tahlil qiling?
98. Texnologiya fanida integratsion yondashuv.
99. Texnologiya fanida interfaol metodlarni qo'llash usullari qanday?
100. Texnologiya fanilarida qo'l mehnati orqali qanday ish turlari bajariladi?

GEOGRAFIYA O'QITISH METODIKASI FANIDAN SAVOLNOMA

1. Olamning paydo bo'lishi haqidagi zamonaviy g'oyalar nimalardan iborat?

2. Quyosh va Oyning Yer geografik qobig'iga ta'siri qanday?
3. Yerning sharsimonligini isbotlashga misollar keltiring.
4. Plan va xarita.
5. Masshtab, uning turlari.
6. Yer qobig'ining asosiy tuzilish zonolari.
7. Asosiy jinslarni aniqlash usullari.
8. Tog' jinslarining tasnifi.
9. Yer yuzasining rel'yef shakllari.
10. Suvning tabiatdagi va inson hayotidagi qadri.
11. Tabiatdagi suv aylanishi.
12. O'zbekistonning ko'l va daryolari.
13. Atmosferaning qatlamlari.
14. Yog'ingarchilikning hosil bo'lishi, ularning turlari va o'lchovi.
15. Atmosfera bosimi.
16. O'zbekiston tuproqlari.
17. Insonning atrof-muhitga ta'siri.
18. Gulli o'simliklarning vegetativ organlari haqida gapirib bering.
19. O'simliklarning generativ organlari.
20. Hujayra organellalarini sanab bering.
21. Ildiz.
22. O'simliklarning jinssiz ko'payishi.
23. O'simliklarning jinsiy ko'payishi.
24. Tuban o'simliklar (Thallobionta) va
25. Yuksak o'simliklar (Kormobionta).
26. Tuban o'simliklar bo'limlari.
27. Yuksak o'simliklar bo'limlari.
28. Moxlar bo'limi (Vryephyta)
29. Rinofitlar (psilofitlar) bo'limi (Rhyniorhyta)
30. Plaunlar bo'limi (Lycopodiophyta)
31. Qirqbo'g'imlilar bo'limi (Yeusetophyta)
32. Poporotniklar yoki qirqquloqlar bo'limi (Rteriophyta)
33. Ochiq urug'lilar yoki qarag'aylar bo'limi (Sumnosperms, Rinophyta)
34. Gulli o'simliklar yoki magnoliofitlar bo'limi (Anthophyta yoki Magnoliophyta).
35. Ikki pallalilar yoki magnoliasimonlar (Magnolipsida).
36. Bir pallalilar yoki lolasimonlar (Monocotyledonese, Liliopcida).
37. Ra'nodoshlar oilasi
38. Karamdoshlar oilasi
39. Sho'radoshlar oilasi
40. Gulxayridoshlar oilasi
41. Burchoqdoshlar oilasi
42. Ituzumdoshlar oilasi

43. Tokdoshlar oilasi
44. Qovoqdoshlar oilasi
45. Ziradoshlar oilasi
46. Qoqio'ldoshlar oilasi
47. Loladoshlar oilasi
48. Piyozdoshlar oilasi
49. Bug'doydoshlar (boshqodoshlar) oilasi.
50. O'zbekiston "Qizil kitob" iga kiritilga o'simliklar.
51. Suvda hayvonlar oziqlanishi va ko'payishi.
52. Gubkalar va ularning tuzilishi.
53. Marjon poliplari.
54. Gelmintozlar.
55. Qisqichbaqasimonlar sinfiga xos xususiyatlar va vakillari.
56. O'rgimchaksimonlar sinf.
57. Hasharotlar sinfi.
58. Xordalilarning tasnifi va xususiyatlari.
59. Qushlar tuzilishining xususiyatlari.
60. Haltalilar xususiyatlari.
61. Kemiruvchilar sinfi.
62. Yirtqichlar sinfi.
63. Sutmizuvchilar ekologiyasi.
64. O'zbekiston qo'riqxonalari.
65. Geografiya o'qitish metodikasining maqsadi va vazifalari.
66. Hozirgi kunda boshlang'ich sinflarda Tabiatshunoslik qanday o'qitilmoqda?
67. Geografiyaning boshqa fanlar bilan aloqasi.
68. Geografiya metodologiyasining kelib chiqishi, V.F.Zuyevning asosiy tamoyillari.
69. O'rta Osiyo mutafakkirlarining tabiiy fanlar rivojiga qo'shgan hissasi.
70. Geografiya metodologiyasining tamoyillari.
71. Geografiya darslarining o'lkashunoslik tamoyili.
72. Boshlang'ich sinflarda geografiya fanining o'quv vazifalari.
73. Geografiya fanidan ta'lim turlari.
74. Kichik maktab o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish usullari qanday deb o'ylaysiz?
75. Geografiya darslarida o'quvchilar nutqini rivojlantirish.
76. Hikoya va uning turlari.
77. Suhbat, suhbat turlari.
78. Atrof muhitni kuzatish, ularning turlari.
79. Amaliy usul - geografiyada tajriba.
80. Geografiya darslarida tajribalar o'tkazish.
81. Geografiyani o'qitishning interfaol usullari.
82. Har xil turdagi darslarning bosqichlarini kengaytirish.
83. Geografiya fanidan sinfdan tashqari ishlar.

84. Geografiyadan ekskursiyalarni tashkil etish.
85. Boshlang'ich sinflarda geografiya fanidan uy vazifasi turlari.
86. Tabiiy tsiklning ertaklarini tashkil etish.
87. Geografiya bo'yicha sinfdan tashqari adabiyotlarni o'qishga talabalarni qanday qiziqtirishni ko'rib chiqing.
88. Geografiya darslarida qanday kartalardan foydalanish mumkin?
89. Geografiya darslarida didaktik o'yinlar o'tkazish.
90. Geografiyada o'zlashtirishni baholash.
91. Geografiya bo'yicha bilimlarini baholashga qo'yiladigan talablar.
92. Geografiya fanidan test topshiriqlari.
93. Geografiyadan tabiiy ko'rgazmali qurollar.
94. Geografiya darslarida globus va xaritadan foydalanish.
95. Geografiyani o'qitishning zamonaviy texnik vositalari.
96. Geografik saytda darslarni o'tkazish xususiyatlari.
97. Geografiya xonasini jihozlash.
98. Dars jihozlari.
99. Plan, plan bilan ishlash metodikasi.
100. Xarita, xarita bilan ishlash.
101. Globus bilan ishlash texnikasi.
102. Geografik xarita va chizmalardan foydalanish.
103. Dars, uning turlari va tuzilishi.
104. Geografiya darslariga qo'yiladigan ta'lim talablari.
105. Didaktik va psixologik talablar.
106. O'qituvchi va talabalarining ekskursiyadagi faoliyati.
107. Yangi mavzu yuzasidan kirish suhbat.
108. Yovvoyi tabiatning burchagida o'simliklarni kuzatish.
109. So'rov o'tkazish metodikasi.
110. Tabiatshunoslik bo'yicha yozma so'rov.
111. Talabalar bilimini baholash turlari.
112. Geografiyadan daftar yuritish.
113. Individual topshiriqlar.
114. Geografiyadan guruh darslari.
115. Geografiya bo'yicha klub ishi.
116. Tabiiy ko'rgazmali qurollar.
117. Tabiat burchagi.
118. Kuzatishlarni tashkil etish.
119. Tabiat burchagiga qanday o'simliklarni joylashtirish tavsiya etiladi?
120. O'quv-tajriba maydonchasidagi ish turlari.
121. Geografik maydoncha tashkil etishga qo'yiladigan talablar.

IV. ATTESTATSIYA SINOVI NATIJALARINI BAHOLASH MEZONI

11. Attestatsiya sinovi bo'yicha talabalar bilimini baholash O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018 yil 9 avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida amalga oshiriladi.

12. Attestatsiya sinovi bo'yicha talabalar bilimini baholashda 5 baholik tizim qo'llaniladi.

13. Talabaning Attestatsiya sinovidagi natijalari quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

Talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, o'z bilimlarini amalda qo'llash imkoniyatlarini ochib beradi, topshiriq (mavzu)ning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda topshiriq (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – "5" (a'lo) baho;

Talaba mustaqil mushohada yuritadi, o'z bilimlarini amalda qo'llash imkoniyatlarini ochib beradi, topshiriq (mavzu)ning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda topshiriq (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – "4" (yaxshi) baho;

Talaba o'z bilimlarini amalda qo'llash imkoniyatlarini ochib beradi, topshiriq (mavzu)ning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda topshiriq (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – "3" (qoniqarli) baho;

Talaba mazkur Dasturni o'zlashtirmagan, topshiriq (mavzu)ning mohiyatini tushunmaydi hamda topshiriq (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas, deb topilganda – "2" (qoniqarsiz) baho.

14. Axborot texnologiyalarini qo'llash orqali o'tkaziladigan test sinovlarida har bir talabaga 100 (yuz) ta savoldan iborat test varianti taqdim etiladi.

Har bir test variantida mazkur Dasturga kiritilgan fanlarga doir savol (topshiriq)lar nisbati o'zaro mutanosib taqsimotda bo'lishi lozim.

Talaba bilimi Attestatsiya sinovida to'g'ri topilgan test savollari soniga nisbatan quyidagi taqsimotda baholanadi:

86 ta va undan ko'p savollarga to'g'ri javob berilganda – 5 ("a'lo");

71 tadan 85 tagacha savollarga to'g'ri javob berilganda – 4 ("yaxshi");

55 tadan 70 tagacha savollarga to'g'ri javob berilganda – 3 ("qoniqarli");

54 ta va undan kam savollarga to'g'ri javob berilganda – 2 ("qoniqarsiz").

Test shaklidagi Attestatsiya sinoviga 3 (uch) soat vaqt beriladi.

Test shaklidagi Attestatsiya sinovi talabalar sig'imiga qo'yiladigan texnik talablarga mos, kompyuterlar bilan jihozlangan o'quv xonalari (hudud)da o'tkaziladi.

15. Talaba baholash natijalaridan norozi bo'lgan taqdirda Attestatsiya sinovilari natijalari Komissiya tomonidan e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 (yigirma to'rt) soat davomida apellyasiya berishi mumkin.

Talabaning apellyasiya murojaati universitet rektori buyrug'i asosida tuziladigan Apellyasiya komissiyasi tomonidan 2 (ikki) kun ichida ko'rib chiqiladi va uning natijasi bo'yicha qaror qabul qilinadi.

V. ATTESTATSIYA SINOV BO'YICHA TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI VA USLUBIY KO'RSATMALAR

16. Dasturni o'zlashtirish bo'yicha foydalanishga tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:

Asosiy adabiyot.

1. Karima Qosimova, Safo Matchonov va boshqalar. "Ona tili o'qitish metodikasi". Toshkent "Noshir" nashriyoti 2009 yil.
2. R. Mavlonova, B. Normurodova, N. Rahmonqulova. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2010-yil.
3. M. Nuritdinova "Tabiatshunoslik o'qitish metodikasi" .: O'qituvchi 2005 y.
4. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Satbayeva "Mehnat va uni o'qitish metodikasi". Darslik. T.: TDPU. 2015-yil.
5. Jumayev M.E. "Matematika o'qitish metodikasi". (OO'Y uchun darslik.) Toshkent. "Turon-Iqbol", 2016 yil. 426 b.
6. M. Hamroyev, D. Muhamedova, D. Shodmonqulova, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva Ona tili (darslik).- Toshkent: MOLIYA- IQTISOD, 2007-yil.
7. Katherine M. First look MS Office 2010. Microsoft Press. Redmond, Washington 98052-6399. Microsoft Corporation, 2010.
8. Xamedova N.A., Ibragimova Z., Tasetov T. Matematika. Darslik. T.; Turon-iqbol, 2007. 363b.

Qo'shimcha adabiyotlar.

1. Ta'lim taraqqiyoti. (Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standarti. Boshlang'ich ta'lim. Ona tili dasturi.) T., Sharq 1999 yil.
2. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi (Boshlang'ich ta'lim bo'yicha yangi tahrirdagi Davlat ta'lim standarti). T., 2010-yil.
3. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi (5-9-sinflar). T., 2010 yil.
4. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent. 2006.
5. Abdullayeva Q. va boshqalar. O'qish kitobi 2-sinf "O'qituvchi" 2010 yil.
6. Abdullayeva Q. va boshqalar. "2-sinfda o'qish darslari", T., "O'qituvchi", 2004 yil.
7. Abdullayeva Q. va boshqalar. "Diktantlar to'plami". T., 2005.
1. Abdullayeva B.S. va boshq. Matematika 1. 1-sinflar uchun ilg'or va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etish buyicha metodik qo'llanma "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat nashriyoti. 11 b.t. Toshkent-2014. 176 bet.
2. Abdullayeva B.S. va boshq. Matematika 2. 2-sinflar uchun ilg'or va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etish bo'yicha metodik qo'llanma "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat nashriyoti. 11 b.t. Toshkent-2015. 176 bet.

3. Abdullayeva B.S. va boshq. Matematika 3. 3-sinflar uchun ilg'or va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etish bo'yicha metodik qo'llanma "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat nashriyoti. 11 b.t. Toshkent-2016. 176 bet.
4. Bo'ri Ziyamuhamedov, Mamarajab Tojiyev. Pedagogik texnoloya-zamonaviy o'zbek milliy modeli. Toshkent. 2009.
5. A. Baxramov. Tabiatshunoslik. 4 sinf Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun
6. Curriculum, cultural traditions and pedagogy: understanding the work of teachers in England, France and Germany (2012).
7. Darslik T: Sharq NMIU 2013.
8. Jumayev M.E., N. T. Ahmedova, B. S. Abdullayeva, N. U. Aslonova "Boshlang'ich sinflar uchun matematikadan didaktik materiallar", O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma, Toshkent, 2016 yil.
9. Jumayev M.E. Tadjieva 3.G'. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. (OO'Y uchun darslik.) Toshkent. "Fan va texnologiya", 2005 yil.
10. G'ulomova X. va boshqalar. «Ona tili» 1-sinf, T., 2009.
11. G'ulomova X. va boshqalar. «1-sinfda ona tili darslari», T., 2003.
12. G'afforova T. va boshqalar. «1-sinfda o'qish darslari», T., 2011.
13. G'afforova T. va boshqalar. «O'qish kitobi», 1-sinf., T., 2008.
14. G'afforova T. va boshqalar. «Boshlang'ich sinflar uchun ona tili va o'qishdan didaktik materiallar. T., 2004.
15. G'ulomova X. va boshqalar. «4-sinfda ona tili darslari», T., «O'qituvchi», 2003 yil.
16. G'afforova T. va boshqalar. «Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar». T., "Tafakkur", 2011.
17. Ikromova R. va boshqalar. "Ona tili", 4-sinf uchun. T., "O'qituvchi", 2007 yil.
18. Fuzailov S., Xudoyberganova M. "Ona tili", 3-sinf uchun. T., "O'qituvchi", 2008 yil.
19. Xudoyberganova M. va boshqalar. «3-sinfda ona tili darslari», T., «O'qituvchi», 2004 yil.
20. Matchonov S. va boshqalar. «4-sinfda o'qish darslari», T., «O'qituvchi», 2002.
21. Ma'qulova B., Nasriddinova D. "Kitobim-oftobim" 1-sinf. T., "O'qituvchi", 2008 y.
22. Ma'qulova B., Nasriddinova D. "Kitobim-oftobim" 2-sinf. T., "O'qituvchi",
23. Mavlonova R. A., Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Mehnat va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. T.; TDPU. 2007-yil.
24. Safarova R., M. Inoyatova, M. Shokirova, L. Shermamatova "Alifbe" (qayta ishlangan 8- nashri). Toshkent. "Ma'naviyat" 2010 yil.
25. Safarova R., va boshqalar "Savod o'rgatish darslari" T., 2012 yil
26. G'ulomov M. "Yozuv daftari" T., 2006 yil
27. Umarova M. "O'qish kitobi" 3- sinf uchun T., "Cho'lpon" 2008 yil
28. Umarova M. "Uchinchi sinfda o'qish darslari", T. 2004.
29. Qosimova K va boshqalar "Ona tili" 2- sinf uchun T., 2008 yil
30. Qosimova K va boshqalar "2-sinfda ona tili darslari" ., T., 2008 yil

Ishmuxamedav R. Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. T 2010 y.

31. R. Ikromova, D. Muhamedova, M. Hamrayev Ona tilidan mashqlar to'plami (o'quv qo'llanma). - Toshkent: TDPU, 2009-yil.

32. Katherine M. First look MS Office 2010. Microsoft Press. Redmond, Washington 98052-6399. Microsoft Corporation, 2010.

31. Колосникова И.А., Борытко Н.М. др. Воспитательная деятельность педагога М, 2006 г.

32. Общая педагогика / Под. ред. В.А. Сластенин (Учебник). - М., 2003 г.

33. Xoshimov K va b. «O'zbek pedagogikasi antologiyasi» Toshkent, «O'qituvchi». 1995y.

R. Ikromova, D. Muhamedova, M. Hamrayev Ona tilidan mashqlar to'plami (o'quv qo'llanma). - Toshkent: TDPU, 2009-yil.

34. Ochilov S. Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari (o'quv qo'llanma) - T., 1995 y.

35. Pedagogy, Curriculum, Teaching Practices and Teacher Education in Developing Countries. 2013.

36. Pedagogy and Practice: Teaching and Learning in Secondary Schools Leadership guide Status: Recommended. Date of issue: 09-2004. Ref: DFES 0444-2004 G.10.

37. Curriculum, cultural traditions and pedagogy: understanding the work of teachers in England, France and Germany (2012).

38. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Boshlang'ich sinflarda qo'g'ozdan amaliy ishlar. O'quv-metodik qo'llanma. T.: Navro'z. 2013-yil.

39. Abdullayeva B.S., Sadikova A.V., Muxitdinova M.N., ToshpoMatova M.I. Matematika. TDPU. (Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish bakalavriyat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik). Toshkent-2014, 390 bet.

III. Internet ma'lumotlari

1. Ziyonet.uz.

2. Edu.uz

3. www.tdpu.uz

4. www.pedagog.uz

5. www.edu.uz

VI. YAKUNLOVCHI QOIDALAR

17. Dasturda belgilangan qoidalar O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, shuningdek ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari tomonidan qabul qilingan qoida va me'yorlarga zid kelsa, yuqori turuvchi organlarda belgilangan qoida va me'yorlar amal qiladi.

18. Dastur Universitet Kengashi tomonidan tasdiqlangandan so'ng, yakuniy davlat attestatsiyasi boshlanishidan uch oy oldin talabalar e'tiboriga yetkaziladi hamda universitetning rasmiy saytiga joylashtiriladi.

19. Fakultet dekanlari tomonidan bitiruvchi kurs talabalariga mazkur Dastur asosida tayyorgarlik ko'rish va maslahatlar berish uchun zarur sharoitlar yaratiladi.